



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI  
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

# O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy  
**JURNAL**

2024 №1(12)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan  
“O'zbekiston sud-ekspertizasi” ilmiy jurnali yuridik va  
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari  
asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

**MUNDARIJA**

|   |     |
|---|-----|
| Raxmanov Sh.N. Ekspertiza uslubiyotini takomillashtirishda integratsiyaviy maxsus bilimlar.....   | 2   |
| Jurayev F. X. Ekspertiza xulosalariga baho berishning ayrim masalalari.....   | 8   |
| O'rozov J.N. Lingvokriminalistika amaliy tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida: shakllanishi va taraqqiyoti.....                           | 12  |
| Najmidinova N.Y. Lingvistik ekspertizada obro'sizlantruvchi nutq strategiyasi belgilari.....  | 20  |
| Musaev O.P., Kolkanov H.T. Особенности становления и развития судебной политолого-лингвистической экспертизы в Узбекистане.....                     | 23  |
| Sattorova D.A. Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishning dolzarb muammolari, sohani rivojlanishining ahamiyati.....                                 | 28  |
| Nosirova M.B., Yakubov I.T. Genetik markerlarning hayvonlar seleksiyasida qo'llanilishining ahamiyati.....  | 34  |
| Akhmedova P.K., Pak E.B. Актуальные проблемы идентификационного исследования синтетических наркотических средств.....                               | 39  |
| Kamilova M.X. Sud-tuproqshunoslik ekspertizasini tayinlash va o'tkazish uchun materiallar tayorlash.....  | 48  |
| Boisxo'jayeva A.A., Axmedova R.K., Xalilova N.Sh. “Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi” laboratoriysi: kecha va bugun..... | 52  |
| Saidov M.S. Kimyoviy o'z-o'zidan yonish hodisisi tadqiqoti va yong'in sababini aniqlash usullari.....   | 58  |
| Abduvahobov Sh.A. Jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatida mutaxassis va unga qo'yildigan talablar.....   | 62  |
| Fayzullayev Sh.F. Qonunchilikdagi nomuvofiqliklar va ularning yechimlari.....   | 67  |
| Musayev M.T. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish va uning istiqboldagi vazifalari.....                    | 72  |
| Rajabov Sh.Sh. Yoshlar ongini kiberekstremizm xavfidan himoyalashning axloqiy-huquqiy mezonlari.....  | 76  |
| Kuranov U. Missionerlikning global miy qosida namoyon bo'lish xususiyatlari.....  | 81  |
| Paluaniyazov B.Y. Markazi Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.....   | 85  |
| Muydinov D.N. Migratsiya borasidagi nazariyalarda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar.....  | 90  |
| Bobokulov Sh. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerdardan ijara huquqi asosida foydalanish tartibi.....   | 98  |
| Xasanova S.O'. Aksiyadorlik jamiyatlarida yig'ilish qarorlarining mohiyati.....   | 103 |

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza markazi**

**Bosh muharrir:**

Akram XALILOV

**Bosh muharrir o'rribbosari:**

Uchkun UZAKOV

**Mas'ul kotib:**  
Nuriddin QOLQANOV

**Tahrir hay'ati:**

Akbar TASHKULOV

Sherzod RABIYEV

Jamshidxon NURITDINOV

Istam ASTANOV

Narzulla JO'RAYEV

Odil MUSAYEV

Eshmuxamad KADIROV

Shuhrat RAXMANOV

Saidillaxodja SAIDXODJAYEV

O'ktam SHAKAROV

Nilufar XALILOVA

Nadejda KORABLYOVA

**Mas'ul muharrir:**

Husan NISHONOV

**Dizayner:**

Faxriddin RAHIMOV

**Sahifalovchi:**

Malohat TOSHOVA

“O'zbekiston sud ekspertizasi” huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommavii  
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda  
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:**

100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani  
Farg'on'a yo'li ko'chasi.

**Telefonlar:**

(71) 209 11 55 (153 ichki), (93) 171 37 74

web-site: [www.sudex.uz](http://www.sudex.uz)

e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

[facebook.com/sudex.uz](https://facebook.com/sudex.uz)

[telegram.me/sudex.uz](https://telegram.me/sudex.uz)

Jurnal 29.03.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Offset usulida bosildi.

Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

“Reliable Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

# SUD-TUPROQSHUNOSLIK EKSPERTIZASINI TAYINLASH VA O‘TKAZISH UCHUN MATERIALLAR TAYYORLASH

**KAMILOVA**  
*Malika Xodjakbarovna,*  
*Materiallar, ashyolar va buyumlar*  
*kriminalistik ekspertizasi*  
*laboratoriyasi yetakchi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud-tuproqshunoslik ekspertizasining predmeti, obyektlari, ekspertiza tadqiqotlarining umumiy qoidalari, hal qiladigan masalalari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekspertiza, tuproq qatlamlari, qiyosiy tadqiqot, kontrol namunalar, umumiy bir tur va bir guruh.

## АННОТАЦИЯ

В статье представлены сведения о предмете, объектах, общих правилах экспертного исследования и вопросах, подлежащих разрешению.

**Ключевые слова:** экспертиза, слои почвы, сравнительное исследование, контрольные образцы, общий тип и группа.

## ANNOTATION

This article provides information about the subject, objects, general rules of expert research and issues to be resolved.

**Key words:** examination, soil layers, comparative study, control samples, general type and group.

Har xil buyumlar, poyabzal, kiyim, transport vositalari qismlari va hokazolardagi tuproq qatlamlari qotillik, talonchilik, tan jarohati yetkazish, zo'r lab nomusga tegish, yo'l-transport hodisasi singari jinoiy ishlarni tekshirishda ko'p uchraydigan daliliy ashyolar jumlasidandir.

Tuproq qatlamlari qonunbuzarlar har xil to'siqlardan o'tganda, yerda harakat qilganda va muayyan joylarda bo'lganida ust kiyim, poyabzal, jinoyat sodir qilish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlarida, transport vositalarining qismlarida qoladi.

Tuproq qatlamlari ekspertizasining isbotiy ahamiyati shundan iboratki, kriminalistik taddiqot natijalari asosida kishining yoki buyumning, atrof-muhitning muayyan qismida bo'lganligi faktini aniqlash mumkin.

Joyning tergovchi yoki sud tarafidan belgilab berilgan qismi, ya'ni u yoki bu voqeа sodir bo'lgan hudud sud-tuproqshunoslik ekspertizasining obyekti bo'ladi. Bunga ochiq joy (dala, poliz, bog', yo'lning bir qismi) yoki usti yopiq yerning bir qismi (saroy, garaj, yerto'la, chordoq va hokazolar kabi usti sun'iy yopilgan binolar) kiradi.

Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi tayinlanganda, ekspert oldiga quyidagi savollarni qo'yish maqsadga muvofiq:

- Obyektlarda birorta begona qatlamlar bormi, agar bo'lsa ular tuproq emasmi?
- Obyektlardagi tuproq moddalari va voqeа sodir bo'lgan yerdan olingan tuproq namunalari umumiy turkumiy va guruhiy taalluqlilikka egami?
- Obyektlardagi tuproq joyning muayyan qismiga taalluqlimi (yerning ma'lum qismi, uning o'lchamlari va chegarasi belgilab beriladi)?

Tuproqning yoki uning kimyoviy tarkibining "o'xhashligi", "bir xilligi" yoki "aynanligi"ni aniqlashga oid savollar qo'yish tavsiya etilmaydi, chunki bu sud-tuproqshunoslik ekspertizasining vazifalarini to'la hal etmaydi.

Ekspertiza tayinlashda shuni nazarda tutish kerakki, faqat ekspertlar ixtiyoriga 25 mg. dan kam bo'lmagan tekshirilayotgan modda taqdim etilgandagina ular obyektlarda tuproq qatlamlari bor yoki yo'qligini aniqlay olishlari mumkin.


Turkumiy (guruhiy) taalluqlilikni aniqlash uchun ekspertga kamida 0,5-1 g. modda kerak bo'ladi.

Ekspertiza tayinlashni taxmin qila turib, jinoyat sodir etilganligi ma'lum bo'lishi bilanoq darhol qiyosiy taddiqot uchun voqeа sodir bo'lgan joyning tegishli qismidan, unga chegaradosh yerlardan tekshiruv (kontrol) namunalari olinmog'i shart. Voqeа sodir bo'lgan joy dastlabki kuzatilgan zahotiyoyq, undan namunalar olinmog'i lozim, chunki vaqt o'tishi bilan tuproqning o'zgarishi ehtimoldan xoli emas. Tuproq namunalari u bilan tutashib turgan jismning tegishli qismi botib turgan chuqurlikkacha bo'lgan yeri qirib olinadi.

Agar obyektlarning tutashib o'zaro ta'sirlashgan yerlarining yuzasi katta bo'lsa, u holda bir necha namunalar yoki bir necha nuqtalardan olingan namunalarni aralashtirib, bir dona aralash namuna olinadi.

Odatda voqeа joyidan bir nechta namuna olinadi, ayniqsa tuproq sathi bir jinsli bo'lmagan hollarda.

Namunalarni olishda kichikroq belkurak, xokandoz yoki tig'i keng pichoq ishlataladi. Namunalarning og'irligi 100–200 gr bo'lmog'i kerak.



Voqeа sodir bo‘lgan joyni yaqin-atrof hududidan ajratish maqsadida solishtirish namunalari voqeа joyi chegarasidan tashqaridagi yerlardan olinadi, solishtirish namunalarining soni 3–5 tadan bo‘lib, ular qiyosiy namunalar kabi rasmiylashtiriladi. Voqeа joyini ko‘zdan kechirish va tuproq namunalarini muta-xassis ishtirokida qarorda ko‘rsatilgan hududdan olish maqsadga muvofiqdir.

Voqeа joyidan tuproq namunalarini olish har bir muayyan holda ma’lum reja bo‘yicha amalga oshiriladi.

1. Voqeа joyi – yer yuzining ochiq sathi (o‘rmon, dala, hovli, poliz) bo‘lganda tuproq namunalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri murda topilgan joydan (2 ta namuna) va u yerdan 5–10 metr masofadan (4 ta namuna) olinadi.

Tekshiruv (kontrol) namunalar – voqeа joyidan 50–100 m masofada olinadi.

2. Voqeа joyi – jar, o‘ra bo‘lganda, tuproq namunalarini jar (o‘ra) tubidan va jar (o‘ra) chetining yuzasidan olinadi.



Tekshiruv (kontrol) namunalar – jar (o‘ra) tashqarisidan tuproqning bosilmagan, tegilmagan qismidan olinadi.

3. Voqeа joyi – uy (kvartira) bo‘lganda, namunalar ifloslangan uy jihoz buyumlari (choyshab, dasturxon, oyoq osti yo‘lka gilamchalaridan, deraza kesakilari va boshqalar) dan, dahlizdan, uyg‘a olib keladigan yo‘lkadan yoki oyoq izlari topilgan joylardan olinadi. Tekshiruv (kontrol) namunalarini uy yaqinida joylashgan yerlardan olinadi.

4. Voqeа joyi – yerto‘la, chordoq, saroy, garaj bo‘lganda, tuproq namunalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri voqeа joyidan, xonaning har xil joyidan, xonaga kiraverish qismidan olinadi. Tekshiruv (kontrol) namunalarini shunga o‘xshash yaqin joylashgan yerto‘la, chordoq, saroy, garajdan olinadi.

5. Voqeа joyi – ko‘l, daryo va boshqa har qanday suv havzasining tubi bo‘lganda, tuproq namunalarini suv havzasi tubidan, qirg‘oqdan, sudrab borilgan yo‘lka bo‘yicha olinadi (agar iz bo‘lsa). Tekshiruv (kontrol) namunalarini suv havzasining qarama-qarshi tomonidan, agar yaqinida boshqa suv havzasi bo‘lsa undan olinadi.

6. Yo‘l harakati hodisalari ro‘y bergenida ulov (transport) vositasining g‘ildiragi, bamperi, to‘sqich (brizgovik) va boshqa qismlarida tuproq qatlamlari bo‘lganda, namunalar voqeа joyidan, ulovning (mashinaning) harakatlanayotgan yo‘lidan va ulovning (transportning) kajavasidan (kuzovidan) olinadi.

Hamma tuproq namunalarini alohida mustahkam idishlarga joylanadi. Agar to‘qima (bo‘z) xaltalarga yoki karton qutilarga joylansa yana ham yaxshi. Bu maqsad uchun polimer xaltalardan yoki shisha idishlardan foydalanish tavsiya etilmaydi, chunki bu holda tuproq keragidan ortiq namlanib qoladi. Agar tuproq nam bo‘lsa, uni xona haroratida quritish zarur. Idishlarga joylashtirilgan namunalarga ular haqida ma’lumot bitilgan qog‘oz bo‘laklari biriktiriladi.

Ko‘pincha tuproq qatlamlarida yaxlit o‘simlik poyalari yoki ularning qismlari aralashgan bo‘ladi, shuning uchun voqeа joyidan tuproq namunalarini olinganda o‘simlik namunalarini ham qo‘shib olish zarur.

Agar kiyim-boshlarda, qotillik, qulf buzish qurollarida va shu kabi voqeа holati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa buyumlarda tuproq qatlamlari bo‘lsa, ular diqqat bilan buyumlardan skalpel yoki pichoq yordamida qirib olinadi va ayrim-ayrim holda, ustida yozuvi bo‘lgan qog‘oz xaltachalarga joylanadi.



Bu ishlarni ekspert amalga oshirgani ma'qul. Shuningdek, kiyimlarning tuproq tekkan qismlarining ustini ular harakat vaqtida yo'qolishdan saqlash uchun ip-gazlama mato bo'lagi bilan tikib qoplanadi.

Har bir kiyim va poyabzal kabi buyumlar ayrim-ayrim paketlarga joylashtiriladi. Ajratib olingan tuproq namunalarini va tuproq qatlamlari bo'lgan daliliy ashyolarni har xil sharoitda saqlab bo'lmaydi, chunki tuproq harorat va namlik ta'sirida o'zgaradi.

Kiyim va poyabzallarda tuproq qatlamlari bo'lganda daliliy ashyolar dastlab sud-tuproqshunoslik, so'ngra sud-tibbiy ekspertizasiga yuboriladi, chunki moddalarning to'kiluvchanlik xususiyati tufayli ular yo'qolishi mumkin.

Ekspertiza tashkilotiga qaror va daliliy ashyolar bilan birga quydagi qarorlar yuboriladi:

- voqeа joyini ko'zdan kechirish, uning tafsiloti, o'lchamlari, chegarasi, tuproq qavatining bir jinsliliги, tuproq yuzasida begona narsalar yo'qligi va yuzasining holati (o'simlik bilan qoplanganligi, nam va quruqligi) bayon qilingan hujjat(bayonna)ning ko'chirma nusxasi;
- tuproq namunalarini chiqarib olish va olish usuli yozilgan hujjat (bayonna) nusxasi;
- voqeа joyining qiyosiy va tekshiruv (kontrol) namunalari olingan nuqtalar ko'rsatilgan chizmasi;
- daliliy ashyolarni musodara qilish haqidagi hujjatning (bayonna) nusxasi va voqeа sodir bo'lgan daqiqadan boshlab ular olingunga qadar ishlatilib ifloslangan buyumlar va ularning o'zgarish yoki o'xhatilayotgan joy qismi (kiyimni va poyabzalni tozalash, dala yerda ish olib borilgani) haqida ma'lumot;
- voqeа sodir bo'lgan daqiqadagi va voqeа sodir bo'lgan vaqtidan boshlab namunalar olingunga qadar o'tgan davrdagi ob-havo sharoiti haqida ma'lumot.

Ekspertiza o'tkazish tajribasi shuni ko'rsatadi, sud-tuproqshunoslik ekspertizasi tayinlangan ko'p hollarda ekspertiza tashkilotiga faqat qaror va daliliy ashyolar yuboriladi.

Shu munosabat bilan buyumlar pochta orqali kelganda, ekspertlar ekspertiza o'tkazishni to'xtatishga majburdirlar va qo'shimcha materiallar to'plab talabnomaga yuboradilar, bu esa ekspertiza o'tkazish muddatiga salbiy ta'sir qiladi.

Tuproq bilan bog'liq obyektlarning sud-ekspertiza tadqiqotining imkoniyatlari ekspertizaga taqdim etilayotgan ashyolarni tayyorlash sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, shuning uchun sud-tergov xodimlarining taklif etilgan tavsiyanomalarga rioya qilishi sud-tuproqshunoslik ekspertizasini muvaffaqiyatli o'tkazishni ta'minlaydi va qo'yilgan savollarga to'liq javob berish imkoniyatini yaratadi.

Sud-tuproqshunoslik ekspertizasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni aniqlashtirish zarur bo'lgan hollarda yoki mazkur ekspertizani tayinlashda boshqa qiyinchiliklar, ekspertga topshiriqni berish, uni o'tkazish uchun materiallarni taqdim etish tartibi bo'yicha bat afsil maslahatni RSEMda olish mumkin.

Manzil: 100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi 46-uy.

Telefon: 71 209 11 55.

## ADABIYOTLAR

1. Козинер Э.П. Комплексное криминалистическое исследование почв. – Москва, 1978.
2. «Sud-tuproqshunoslik ekspertizasining imkoniyatlari». Axborot xati. – Toshkent, 2015.
3. Zamonaviy ekspertiza imkoniyatlari. Sud ekspertizaning imkoniyatlari va uni tayinlash to'g'risida uslubiy qo'llanma. – Toshkent.: Adolat, 2009.
4. Zamonaviy sud-ekspertiza imkoniyatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. – Toshkent, 2019.